



Ozodlikdan mahrum qilish falsafasi: jazo yoki ajratib qo'yish ustuvorligi

Abdixalilov Abrorbek Shuxrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 4- bosqich talabasi

abrorbekabdikhalilov@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada ozodlikdan mahrum qilish umumiy tushunchasi va uning retrospektiv tahlili. Jazo falsafasi va insoniyat tarixida shaxsni ajratib qo'yish maqsadi, bundan tashqari ularning liberal va boshqa ilmiy yondashuvlari kabi masalalar yoritib borilgan. Muallif xalqaro tajriba va normativ-huquqiy asoslarga tayanib, zamonaviy xorijiy amaliyot va O'zbekiston Respublikasida ajratib qo'yish masalalari ushbu maqolada ochiqqlangan. Shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish jazosi jazo va jazolanuvchining qayta tarbiyalash vositasi sifatida o'rganilib uning kelajakdagi istiqbollari yuzasida zarur chuqur tahliliy takliflar va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ozodlikdan mahrum qilish, ajratib qo'yish, jazoni ijro etish, jazoni ijro etish muassasasi, mahbus, sud, tergov hibsonasi, jinoyatchi psixologiyasi, ilmiy yondashuv, liberal yondashuv, rehabilitatsiya, penitensiar tizim.

Bugungi globallashuv zamonida ozodlikdan mahrum qilish sohasi o'zining muhimlik darajasini kundan-kunga orttirmoqda, bundan tashqari penitensiar tizimni rivojlanishning hozirgi darajasiga qanchalik mos ekanligi katta mumolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 11,5 milliondan ortiq mahbus qamoqxonalarda saqlanmoqda, ularning aksariyati erkaklar. So'nggi yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshib bormoqda. Bunga qat'iy jinoiy siyosat, muqobil jazolarning cheklanganligi, sudgacha hibsdan ushlab turish holatlarining ko'payishi, shuningdek, giyohvand moddalar iste'moli va



qashshoqlikning jinoyatlashtirilishi sabab bo'lmoqda. Natijada, ko'plab mamlakatlarda qamoqxonalarning sig'imi oshib ketgan, 155 davlat bu holatni rasman tan olgan. Eng katta o'sish Amerikada, Osiyo va Okeaniyada kuzatilmoqda, Afrikada esa sudgacha hibs va kambag'allik muammolarni yanada og'irlashtirmoqda¹. Ayrim davlatlar yangi qamoqxona qurish, mavjudlarini kengaytirish yoki vaqtinchalik saqlash joylarini tashkil etish orqali bosimni kamaytirishga urinmoqda. Shunga qaramay, sud hukmisiz uzoq muddatli hibs saqlanish holatlari keng tarqalgan bo'lib, bu inson huquqlarini buzmoqda. Ayniqsa, irqiy va etnik guruhlar bundan ko'proq zarar ko'rmoqda. Ayollar soni ham ortib bormoqda, ko'pincha ular giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar sababli jazolanadi. Qamoqxonalarda zo'ravonlik, korrupsiya, past mehnat haqi va tibbiy xizmat yetishmasligi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Penitensiar tizimni takomillashtirish uchun insonparvar, ijtimoiy qayta moslashtiruvchi yondashuvlar zarur.

Birinchidan, sudgacha bo'lgan jarayon va tergov hibsxonalari faoliyatida shaxsning ijtimoiy va psixologik holatini hisobga olish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Hibsdagi shaxslarning huquqlari, axloqiy holati va keyingi ijtimoiylashuv imkoniyatlariga keng e'tibor berilmaydi.

Ikkinchidan, sud jarayonida ayblanuvchining ijtimoiy va psixologik holatini e'tiborga olish amaliyoti yetarli darajada rivojlanmagan. Ko'pincha jazo belgilashda shaxsning axloqan tuzalishi, uning jamiyatga qayta moslashish imkoniyatlari va ijtimoiy omillar hisobga olinmaydi. Bu esa insonparvar yondashuvning yetishmasligiga olib kelib, sud qarorlari faqat jazolashga yo'naltirilgan repressiv xarakterda bo'lishiga sabab bo'lmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat sudlarida 20 mingdan ortiq hollarda ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilgan. Bu ko'rsatkich Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan jazolarning 35%dan ortig'ini tashkil qilmoqda.

¹ <https://www.penalreform.org/global-prison-trends-2024/>



Uchinchidan, jazoni ijro etish jarayonida mahkumlarning ijtimoiy va psixologik holatini hisobga olish yetarlicha rivojlanmagan. Ularning axloqan tuzalishi va qayta ijtimoiylashuviga yo‘naltirilgan tizimli choralar kamdan-kam hollarda qo‘llanilmoqda.

To‘rtinchidan, ijtimoiy rehabilitatsiya vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy tajribasi yetarli darajada rivojlanmagan. Bu boradagi ilmiy izlanishlar ham cheklangan, natijada mahkumlarga nisbatan ijtimoiy vositalarni qo‘llash samaradorligi pastligicha qolmoqda.

Beshinchidan, jazoni ijro etish jarayonida repressiv yondashuv ustunlik qilmoqda, mahkumlarning jamiyatga qayta moslashishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik va psixologik usullar esa yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Xorij tajribasida esa mahkumlarni ijtimoiy vositalar orqali jamiyatga qayta integratsiya qilish samarali yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, rehabilitatsiya markazlari, malaka oshirish, psixologik yordam va postpenitensiar qo‘llab-quvvatlash tizimlari mavjud. Ularning maqsadi mahkumlarni faqat jazolash emas, balki foydali fuqaroga aylantirishdir. O‘zbekistonda ham penitensiar tizimni isloh qilish yo‘nalishida strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu islohotlar mahkumlarning ijtimoiy ta‘minoti, mehnati va jamiyatga moslashuvini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Hozirgi paytda og‘ir va ajratishga asoslangan jazolarning jinoyatchilikning oldini olishdagi samarasizligi yaqqol bilinmoqda. Jinoyatga qarshi kurashda jazoning og‘irligi emas, balki muqarrarligi muhim. O‘zbekiston JK 7-moddasida insonparvarlik prinsipi ustuvor bo‘lib, jazo shaxsning tuzalishi va yangi jinoyatning oldini olishga xizmat qilishi kerakligi ta‘kidlanadi². Shu nuqtai nazardan, shaxsni jamiyatdan ajratishga asoslangan jazo bu prinsipga qanchalik mos keladi, degan savol o‘rinli.

Ozodlikan mahrum qilish jazosi mahkumning huquqlarini kamsitmagan holda cheklanib, jazoni ijoetish koloniyasiga yoki turmaga joylashtirish orqali amalga oshiriladigan kompleks jazo turi hisoblanadi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosining asosiy

² O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2024-yil 15-aprelgacha bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – T .:”Adolat”. 31-b.



vazifalari – jamiyatdan ajratish, mahkumni axloqan tuzatish va yangi jinoyatlarning oldini olish – Tarix davomida bu jazo turli shakllarda, dastlab tazyiq va saqlash vositasi sifatida boshlangan bo‘lsa, XVI–XVII asrlarda Bridewell tuzatish uylari bilan majburiy mehnat va tarbiya elementlarini, XVIII–XIX asrlarda esa sanitariya sharoitlari, ta’lim, diniy tarbiya va mahbuslarni ajratish tamoyillarini jamlagan islohotlarni ko‘rdi. XX asrda ochiq qamoqxona, probatsiya va restorativ adliya kabi yondashuvlar paydo bo‘lib, jazoni nafaqat jazolash, balki rehabilitatsiya vositasiga aylantirishga urinish kuchaydi. Hozirgi kunda mahbuslar sonining ortishi, infratuzilma muammolari va pandemiya sharoitlari bu tizimda muqobil choralarni – probatsiya, ijtimoiy xizmat va restorativ adliya – kengaytirish zaruratini oshirmoqda. Shuning uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi inklyuziv rehabilitatsiya va profilaktika prinsiplari asosida, differensial yondashuvlarni va muqobil choralarning imkoniyatlarini to‘liq hisobga olgan holda takomillashtirilishi lozim.

Tarixiy jihatdan jazolash tizimi jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlangan. Dastlab jazo jismoniy qiynoqlar va qo‘rqitishga asoslangan bo‘lsa, hozirgi kunda u shaxsni isloh qilish, rehabilitatsiya qilish va jamiyatga qaytarishga qaratilmoqda. Ilmiy (utilitaristik) yondashuv samaradorlik, proportsiyalilik va jinoyatning oldini olishga urg‘u bersa, liberal yondashuv inson huquqlari va ijtimoiy adolatni ustuvor deb biladi. Zamonaviy tizim ushbu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirib, jinoyatchini insoniy qadr-qimmatini saqlagan holda ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Bundan tashqari jazolar shaxsning qilgan jinoyatini jazolash uchun emas, balki mahkumni qayta tarbiyalash uchun qo‘llanilishi kerak. Jazo hokimiyatning boshqaruv asoslaridan biri va jazolar ham davlat, ham jamiyat uchun muhim foyda bo‘lishi kerak.

Ozodlikdan mahrum qilish turli yondashuvlar orqali asoslanadi. Liberal yondashuv adolat va inson huquqlarini himoya qilishni ta’kidlaydi³, retributiv yondashuv jinoyatchining jazoga loyiq ekanligini ilgari suradi, tazyiq nazariyasi jazolar orqali

³ <https://www.dissentmagazine.org/article/liberal-punishment-review-naomi-murakawa-first-civil-right/>



jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan⁴, rehabilitatsiya yondashuvi jinoyatchilarni isloh qilish va jamiyatga qaytarishni maqsad qiladi, abolitsionist yondashuv esa qamoq tizimini bekor qilishni talab qiladi. Zamonaviy jazo tizimlari ushbu yondashuvlarni birlashtirib, jinoyatchilikni kamaytirish va adolatni ta'minlashga harakat qilmoqda⁵.

Turli davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ozodlikdan mahrum qilish jazosini insonparvarlik va rehabilitatsiyaga asoslangan holda qo'llash jinoyatchilik darajasini pasaytirishda samaraliroqdir. Finlandiya, Germaniya va Shveysariya kabi mamlakatlar qayta ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan tizimlar orqali mahbuslarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasiga erishmoqda. Yaponiya va Qozog'iston esa qat'iy tartibga asoslangan yondashuv bilan birga, bosqichma-bosqich rehabilitatsion elementlarni joriy etmoqda⁶. Barcha tajribalar shuni ko'rsatadiki, alternativ jazolarni kengaytirish, ta'lim va kasbga o'rgatish kabi choralar qamoqxonalardagi yukni kamaytiradi, retsidivizmni pasaytiradi va jamiyat xavfsizligini mustahkamlaydi. Shu bois, zamonaviy qamoqxona siyosati jazolashdan ko'ra, tiklash va moslashishga urg'u berishga intilmoqda.

Jazo jinoyat huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lib, uning maqsadi jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida jazo tizimi insonparvarlik va adolat tamoyillari asosida shakllanib, yengil choradan boshlab eng og'ir jazogacha ketma-ketlikda tartiblangan. So'nggi yillarda jazo turlarining samaradorligi tahlil qilinib, ayrim jazolar bekor qilinib, yangi muqobil choralar – ozodlikni cheklash, majburiy jamoat ishlari kabi yumshoqroq shakllar joriy etildi. Statistika esa jazolarning qo'llanishi ortganini va jinoyatlar murakkablashayotganini ko'rsatadi. Bu esa jinoyatga qarshi kurashda yanada takomillashtirilgan va samarali yondashuvlar zarurligini anglatadi⁷.

⁴ <https://www.criminaljustice.com/resources/three-theories-of-criminal-justice/>

⁵ Jinoyat huquqi (umumiy qism) Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. M.H.Rustamboyev. –T. TDYU nashriyoti. 2021.

⁶ <https://www.prisonstudies.org/country/>

⁷ Penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirish. N.S.Salayev. Toshkent: "Impress Media" MCHJ nashriyoti, 2024. – 141-bet.



Ushbu sohani rivojlantirish uchun professor va pedagoglarni orasida so‘rovnoma amalga oshirildi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, Ozodlikdan mahrum qilish jazosi jinoyatchilikni kamaytirishda samarali ekanligi bu jinoyatning turiga va jinoyatchining shaxsiga bog‘liq ekanligi ko‘plab professor va ustozlar tomonidan bayon etilgan. Ajratib qo‘yish mexanizmi rivojlantirish to‘g‘risidagi savolga ustozlar mahkumlarni jinoyatni jinoyatining og‘irligi va shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra tasniflash zarurligini ta’kidlashdi. Alternativ jazo turlarini ko‘proq qo‘llash zarurati to‘g‘risidagi savolga jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish va individual yondashish kerak deb topishdi⁸. Ayni vaqtdagi eng katta muammolardan biri bu mahbuslarning ijtimoiy moslashuvi hisoblanadi va bu muammoni yechimi sifida nimalar zarur degan savolga ustozlar mahbuslarni ish bilan ta’minlash orqali uni mehnat bozoriga moslashtirish zarur ekanligini aytishdi.

1. Jinoyatchi va jabrlanuvchi o‘rtasida muloqot, yarashuv va zararlarni qoplashga asoslangan alternativ mexanizmlarni rivojlantirish zarur. Bu yondashuv mahkumlarning qilgan jinoyatini tushunib yetishi, pushaymonlik bildirish va ijobiy o‘zgarishga intilishini rag‘batlantiradi. Shuningdek, mahalliy jamoatchilikni jazoni o‘tash va reintegratsiya jarayonlariga jalb qilish orqali ijtimoiy nazoratni oshirish mumkin bo‘ladi.

2. Har bir mahkumning psixologik, ijtimoiy va ta’limiy ehtiyojlariga qarab individual reabilitatsiya dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Bu dasturlar mahkumlarning ichki o‘zgarishiga, kasb-hunar o‘rganishiga va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi kerak. Ayniqsa, ruhiy salomatlik, giyohvandlikdan davolanish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar orqali ularni jamiyatga tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tizimining samaradorligini baholash va doimiy ravishda takomillashtirish uchun jamoatchilik vakillaridan iborat monitoring

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. 11.09.2023 yildagi PF-158-son



tadbirlarini tizimli yo'lga qo'yish, jazoni ijro etish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini oshirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirish. N.S.Salayev. Toshkent: "Impress Media" MCHJ nashriyoti, 2024. – 141-bet.
2. Jinoyat huquqi (umumiy qism) Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. M.H.Rustamboyev. –T. TDYU nashriyoti. 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. 11.09.2023 yildagi PF-158-son
4. <https://www.prisonstudies.org/country/>
5. <https://www.dissentmagazine.org/article/liberal-punishment-review-naomi-murakawa-first-civil-right/>
6. <https://www.criminaljustice.com/resources/three-theories-of-criminal-justice/>
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2024-yil 15-aprelgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – T.: "Adolat". 31-b.
8. <https://www.penalreform.org/global-prison-trends-2024/>